

NAMANGAN VILOYATIDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHNI RIVOJLANTIRISHGA TA`SIR ETUVCHI OMILLAR

Rayimberdiyeva D, Inoyatova M, Hayitaliyev J

Namangan To'qimachilik Sanoati Institutiu

KIRISH

Korxonalarni barqaror rivojlantirish ko'p sonli omillarga bog'liq bo'lib, unga ta'sir etuvchi barcha omillarni kompleks va ishonchli tarzda baholash maqsadga muvofiqdir. Bunda, ularning orasidan ikkita asosiy guruhni – moddiy va tashkiliy tavsifdagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Moddiy omillar qatoriga ichki (tabiiy, xomashyo, texnologik, infratuzilma) va tashqi (tashqi bozorlar holati) omillar kiritiladi. Moddiy omillar iqtisodiy o'sishning potensial imkoniyatlari va bu o'sishga xalaqit beruvchi to'siqlarni aniqlab beradi.

Tashkiliy omillar tarkibiga iqtisodiy sohada boshqaruv va institusional faoliyat bilan bog'liq barcha omillarni kiritish mumkin. Bu omillar yoki bevosita xo'jalik faoliyati jarayonida yoki iqtisodiy mexanizmlar va huquqiy me'yorlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ular moddiy omillar belgilab beruvchi sharoitlarda sotiluvchi mahsulotlar va mablag'lar muayyan oqimini belgilab beradi. Tashkiliy omillar iqtisodiyotda tartibga solish funksiyasini bajarishi mo'ljallangan. Biroq ular shu bilan bir paytda boshqaruv jarayonlari va ob'yektning jiddiy xususiyatlari hisobga olinmagan taqdirda inqirozli holatlarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tashqi omillar sifatida: davlatning agrar siyosati, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari, narx-navo siyosati, eksport-import siyosati, iste'molchilar, raqobatbardoshlik, qonuniy-huquqiy baza va boshqalarni keltirish mumkin.

Bu omillar ishlab chiqarish jarayoniga, innovasion, tijorat va moliyaviy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarining daromadlarini shakllanishida subsidiyalar katta ulushga ega bo'layotgan rivojlangan davlatlarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tarmoqning barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarmoqni barqaror rivojlantirishning tashqi omillariga oldindan belgilab olish qiyin bo'lgan o'zgarishlar, inflyasiya, bozorlardagi mutanosiblik va boshqalarni kiritish mumkin.


Annotasiya. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'p jihatdan turdosh tarmoqlarning



mahsulot ishlab chiqarish proporsiyalari va mahsulotlar narxi indekslariga bogʻliqligi oʻrganildi. Ushbu proporsiyalarning oʻziga teng qiymatlarga yaqinlashuvi iqtisodiyot mahsuldorligini iqtisodiyotning texnologik asoslarini oʻzgartirmasdan turib bir foizdan oʻnlab foizlargacha oshirishga imkon beradi.

Kalit soʻzlar. Infratuzilma, inflyasiya, eksport-import siyosati, obʼyektiv, subʼyektiv.

Bizningcha, tashqi omillarni ikki guruhga ajratib olish lozim (1-rasm).



1-rasm. Barqaror rivojlanishga taʼsir etuvchi tashqi omillarning guruhlash.

Bugungi kunda barqaror rivojlanishga salbiy taʼsir etayotgan omillarni obʼyektiv va subʼyektiv guruhlarga boʻlish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz. Obʼyektiv omillarga: moliya, pul, kredit va soliq tizimidagi muammolar, tarmoqni isloh qilishdagi meʼyoriy va huquqiy baza, inflyasiya, ishlab chiqarishda oldindan koʻrib boʻlmaydigan oʻzgarishlar, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishoʻ va amaliyotga joriy etilishi, ichki xoʻjalik munosabatlaridagi oldindan koʻrinmaydigan oʻzgarishlar, moliyaviy barqarorlik muammolari, toʻlov qobiliyati va boshqalar.

Subʼyektiv omillar bevosita xoʻjalik faoliyatiga bogʻliq kamchiliklarni oldindan koʻra bilmaslik va uni bartavraf etish muammolari, talab va taklifni mukammal bilmaslik, reklama va tayyorlov tizimining rivojlanmaganligi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot sotish hajmining kamayishi, raqobatbardoshlik, boshqaruv mutassadilari va mutaxassislarning bilim salohiyatini yetarli emasligi, shartnoma munosabatlariga amal qilmaslikva uning mohiyatini toʻliq anglamaslik.

Ushbu keltirilgan muammolarni bartaraf etib, real sektor korxonalarini barqaror rivojlantirishda umumdavlat va tarmoqlar darajasida hududiy vazifalarni hal etish, iqtisodiy taraqqiyotga erishishda ishlab chiqarish

kuchlarining sifat jihatidan isloh qilinishi va ishlab chiqarish munosabatlari takomillashuvi, mehnat, moddiy hamda tabiiy resurslarni viloyatlararo, tumanlararo integratsiyalashuvidan, zamonaviy texnika va texnologiyalardan izchillik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ushbu qudratli omillaridan samarali foydalanishga mintaqa va tarmoq iqtisodiyotini ilmiy asoslangan boshqarish tizimi amal qilgandagina erishish mumkin.

Ma'lumki, moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdagi mablag'larni maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, byudjet, bank, xom ashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi. Korxonaning moliyaviy holati barqaror, nobarqaror va krizis darajasida bo'lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalarda ishchi va xizmatchilar bilan ish haqi, byudjet, bank, mol yetkazib beruvchilar bilan bo'la-digan hisob-kitob ishlari o'z muddatida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomga rioya qilmaslik, debitorlik va kreditorlik qarzlarning ortib ketishiga olib keladi va muddati uzaytiril-gan qarzlarning surunkali davom etishi bankrotlik alomatlarini vujudga keltiradi.

Moliyaviy holat barqarorligining tahlili orqali ma'lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni korxonaga qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va korxonaga rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikning talab darajasidan past bo'lishi korxonaning to'lovga qobilligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarish rivojlanishi uchun mablag'lar yetishmasligiga olib keladi. Buning aksi bo'lgan holatlarda esa moliyaviy resurslar ortiqchaligi ishlab chiqarish rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ishlab chiqarish zaxiralari va rezervlarining me'yordan ortib ketishiga sabab bo'ladi. Demak, moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi [1].

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko'rsatkich bo'lib, korxonaga faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka erishgan korxonalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- bozor munosabatlarining har-xil sharoitlarida ham faoliyat yurita olishi;
- korxonaga pul mablag'larining erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarning bozor talablariga mos kelishi;
- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to'lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta'minlay olishi;
- ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarining manbalar bilan qoplanishi.



Moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun ko'rsatkichlar uch guruhga ajratilgan holda o'rganiladi.

I-guruh. To'lovga qodirlik.


II-guruh. Kapital strukturasi.

III-guruh. Asosiy vositalar va aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Moliyaviy barqarorlik o'z va chetdan jalb etilgan kapitallar nisbati, joriy, investisiya va moliyaviy faoliyat tufayli o'z kapitali jamg'armasini o'sish darajasi, harakatchan va immobiliza-siya qilingan resurslar nisbati, zaxiralarning o'z mablag'lari manbai bilan ta'minlanishini ifodalaydi.

Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta'minlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Korxonalar moliyaviy barqarorligining turlari.

Yuqoridagi rasmdan kelib chiqib, korxonalar moliyaviy barqarorligining turlariga quyidagicha izoh berish mumkin:

– joriy – konkret (aniq) davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;

– imkon – tashqi sharoit o'zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;

– yuzaki – davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;

– real – raqobat sharoitida kengaygan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik.

Moliyaviy barqarorlikni mutlaq ko'rsatkichlar ishtirokida aniqlash uchun ishlab chiqarish zaxiralari uni tashkil etuvchi manbalari, ya'ni o'z aylanma mablag'lari, bankdan olingan uzoq mud-datli va qisqa muddatli kredit va qarzlarning summalari bilan taqqoslanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar foiz, koeffitsiyent, indekslar ko'rinishida ifodalanadi.

Moliyaviy barqarorlikni mutlaq ko'rsatkichlar ishtirokida tahlil etish uchun zaxira va xarajatlarni uni qoplash manbalari bilan taqqoslash lozim. Zaxira va xarajatlarni qoplash manbalarini holati uchun manbalar buxgalteriya balansining aktiv va passiv qismlaridan olinadi.

Moliyaviy holat tangligini pasaytirish, undan chiqish uchun quyidagi manbalarni jalb etish mumkin.

- ortiqcha pul mablag'lari;
- chetdan jalb etilgan manbalar;
- bankdan olingan kredit;
- boshqa manbalar.

Korxonalarni barqaror rivojlantirish muammolarini bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni:

- nodavlat, notijorat KBXT (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik) ga ko'maklashuvchi sub'yektlarni tashkil etish (o'quv markazlari, reklama firmalari, konsalting xizmat ko'rsatuvchi biznes inkubator va x.k);

- alohida seminarlar, taqdimotlar o'tkazish, yangiliklar bilan tanishtirish;

- 3-5 yillik mahalliy, xudud va viloyatlarda maxsus Dasturlarni ishlab chiqish;

- noqonuniy aralashuvni alohida nazorat ostiga olinishi, ortiqcha qonun buzarlilik holatlarini va shaxslarni javobgarlikka tortish hamda hokimiyatlar qoshida himoya qiluvchi maxsus o'rganlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish albatta, mahalliy hokimiyat oldiga bir qator ma'suliyat yuklaydi. Jumladan,

- tekshiruvchi organlar faoliyati yuzasidan qattiq nazorat o'rnatish;
- axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, mutaxassislarni jalb etish, byulleten va broshyuralarni chiqarish;
- har bir xududda tadbirkorlikni rivojlantirishga mo'ljallangan 5-10 yillik dastur ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish;
- korxonalar faoliyatiga noo'rin aralashuvlarni oldini olish, tekshiruvlarni yanada qisqartirish yuzasidan jamoatchilik nazoratini ko'paytirish.

Xulosa

Barqaror rivojlanish ko'p jihatdan turdosh tarmoqlarning mahsulot ishlab chiqarish proporsiyalari va mahsulotlar narxi indekslariga bog'liq bo'ladi. Bu



proporsiyalarning o'ziga teng qiymatlarga yaqinlashuvi iqtisodiyot mahsuldorligini iqtisodiyotning texnologik asoslarini o'zgartirmasdan turib bir foizdan o'nlab foizlargacha oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshbol'tiyev Sardorbek Sidiqjon o'g'li “Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalarining o'rni” Bitiruv Malakaviy Ishi Namangan-2024 yil.

2. Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. 2005 йил.

3. Манба: Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Жахон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни баргараф этишнинг йўллари ва чоралари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуманидаги тақдимот материаллари. – Т., ТДИУ, 2009 йил 5 май.

